

AMALIY VA FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI

Jild: 03 Nashr: 5 (2024) ISSN: 2992-8923

www.mudarrisziyo.uz

O'zbek Va Fransuz Xalq Maqollarining Milliy Xususiyatlari

Abdullayeva Nilufar Nasulloyevna

Buxoro Davlat Universiteti Xorijiy tillar fakulteti, Fransuz filologiyasi kafedrası o'qituvchisi

Yakubova Anorjon Otaxon qizi

Buxoro Davlat Universiteti, Xorijiy tillar fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: «O'zbek va fransuz xalq maqollarining milliy xususiyatlari» mavzusidagi ushbu maqolada har ikki millat maqollarining tarixi, ijtimoiy muhit, g'oya va falsafasi, milliy ruhiyati kabi jihatlariga e'tibor qaratiladi. Maqolada, bu ikki millat xalq maqollarining milliy identifikatsiyasiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, insonlarning tabiatga nisbatan munosib munosabati, ijtimoiy tarixi va madaniyati, milliy qadriyatlari, maqollarning o'zaro farq va o'xshashliklari xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: maqol, mentalitet, madaniy meros, ekvivalent, matal.

Kirish

Bugungi kunda, maqollar ustida qizg'in izlanishlar olib borilayotgan bir paytda, maqollarning turli jihatlarini o'rganish, paremiologiya sohasining asosiy vazifalaridan biri bo'lib bormoqda. Maqollarning qiyosiy jihatlarini o'rganish asnosida ularning lingvokulturologik jihatlariga to'xtalmay ilojimiz yo'q. Bu orqali tadqiq etayotgan tillarimizdagi maqollarning bir-biriga o'xshash va farqli tomonlarini, shu til egasi bo'lmish xalqlarning o'ziga yarasha madaniyati va o'ziga xos mentalitetini ko'rsatishga harakat qilamiz.

Ushbu maqolada o'zbek va fransuz xalq maqollarining lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini tasvirlash, o'zbek va fransuz tillaridagi maqollarning mavzu jihatidan bir-biriga o'xshash tomonlarini ko'rib chiqish va ulardagi mentalitet va milliy xarakterning ifodalanishi kabi masalalarga chuqurroq yondashishga harakat qilamiz. [1]

O'zbek va fransuz xalq maqollarining milliy xususiyatlari haqida gaplashish juda qiziqarli mavzu. O'zbek va fransuz maqollari, har bir mamlakatning tarixi, madaniyati va insonlarning o'zgarmas qadriyatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu maqollar odatda tabiat, hayot va insonlarning munosabatlari to'g'risida bo'ladi. Ularning ko'p qismi o'tgan asrlardan qolgan bo'lib, ular asosida she'rlar, qissalar va hikoyalar shakllangan. Bu maqollar insonlarning tabiatga, hayotga va jamiyatga munosib bo'lishini ifodalaydi. O'zbek maqollari odatda o'ziga xos so'zlar va ifodalar bilan ajralib turadi.

Fransuz maqollari esa adolat, muhabbat, do'stlik va jamiyatning boshqa mohiyatlarini yoritib beradi. Shuningdek, falsafa, san'at va siyosatga ham oid bo'lishi bilan ajralib turadi. Fransuz maqollari tarixiy ravishda o'nlab asrlardan qolgan bo'lib, hozirgi kunda ham ommaviyligi bilan tanilgan bo'lib, ularning asosiy maqsadi insonlarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga yordam berishdir. Bu maqollardagi hikmatlar barcha uchun birdek muhim bo'lib, millat ruhi, madaniyati va tarixini anglash imkonini beradi.

Metodlar

Tilshunos olimlardan Nida biror xalqning tilini o'rganishda uning madaniyatini ham o'rganish muhim ekanligini aytadi. Uning ta'kidlashicha, til va madaniyat bir-biriga bog'liq ravishda rivojlangan o'xshash sistemadir. Umuman, madaniy faktorlar misolida tilshunos Teliya ham ma'lum xalqqa va uning tarixiga tegishli bilimlar, an'ana va qadriyatlar, kundalik odatlar va boshqa madaniy ko'rsatkichlarni insoniyatning fundamental asoslari va ular orqali dunyoni anglashini tushuntirib o'tadi. Shuningdek, uning fikricha, har bir madaniyatning asosida yotuvchi til hech qachon madaniyatdan ayro o'rganilmasligi va insoniyat tildan madaniyatning har bir nuqtasini ifodalashda foydalanishini aytib o'tadi. [2]

V. Teliya tilshunos va folklorshunos olim sifatida madaniyatni til bilan bog'liqligida paremiologiya sohasi rolini alohida ta'kidlab o'tadi. Uning aytishicha, til butun bir madaniyatni o'zida ifodalay ekan, shubhasiz, paremiologiya sohasi ham tilning egasi bo'lmish xalqning madaniyatini juda chiroyli va chuqur ifodalay oladi. Bunday holatni o'zaro til va madaniyatning qorishib ketgan sohasi ya'ni lingvokulturologiya asoslay oladi. Demak, xalq madaniyatini ko'rsatishda maqollar eng faol vositalardan biri sifatida bugungi kunda tilshunoslikda lingvokulturologik izlanishlar jarayonining muhim mavzularidan biriga aylanmoqda. Ko'plab izlanishlarning asosiy obyekti sifatida ishlanilyapti. Teliya – maqollar butunlay xalqning madaniyatini ko'rsatuvchi omillar ekanligiga ishonadi. Har bir maqol, uning fikricha, xalqning turmush tarzini qisqa va lo'nda, umuman olganda, to'laligicha ifodalay oladigan ko'zgu deb hisoblaydi. Maqollarning lingvokulturologik sifatlariga to'xtalgan holda olimlardan Nida maqollarni o'rganishda bevosita tilni va o'sha xalqning madaniyatini o'rganish bu tabiiy hol deb hisoblaydi. Tilda mavjud bo'lgan leksema o'sha xalqning turmush tarzidan ya'ni xalq tilidan kelib chiqqan bo'lib, bu bevosita maqollarda ishtirok etadi va maqollar orqali xalqning madaniyati aks etadi. Fransuzcha: « Ange à l'église et diable à la maison » maqolini o'zbek tiliga tarjima qilsak – « Cherkovda farishta, uyda shaytondek » ma'nosini beradi. Bu o'zbek tilida: « Ko'cha – xandon, uy – zindon » maqoli orqali ifodalanadi. Agar maqolning ma'no-mazmunini tahlil qiladigan bo'lsak, ko'chada doimiy hushchaqchaq, mehribon bo'ladigan shaxs har doim ham yaxshi inson bo'lib qolavermaydi. Bu maqol orqali yaxshi va hushchaqchaq bo'lib ko'ringan shaxs, aslida hech qanday insoniy sifatlarga ega bo'lmasligi ham mumkinligini ifodalayapti. [3]

Mashhur tilshunos Dal aytganidek, « Maqollar to'plami – bu xalq tilidan, tajribasidan olingan hikmatlar majmuasi, sog'lom aql sarasi, xalqning hayotda orttirgan haqiqatidir. Turli tillarning maqollariga to'xtalar ekanmiz, ular o'sha til egasi bo'lmish xalqning tarixiy, ma'naviy va moddiy madaniyati ko'zgusi ekaniga guvoh bo'lamiz. Shu sababli, turli til maqollarini qiyosiy o'rganish millatning o'ziga xos madaniy va milliy qirralarini ochishga yordam beradi, boshqacha qilib aytganda, o'sha xalqning mentalitetini ko'rsatadi ».

« Mentalitet » tushunchasi tilshunoslik paradigmasiga kiritilganiga hali ko'p bo'lmagan bo'lsada, hozirda juda keng doirada qo'llanilmoqda. Tor ma'noda mentalitet « fikrlash doirasi, dunyoqarashi » mazmunida foydalanilsa, keng ma'noda esa « xalqning axloqi, tarbiyasi va tasavvuri tushuniladi ». [4]

Natijalar

Fransuz tili maqollaridagi milliylik haqida gapirar ekanmiz, fransuz xalqining xarakteri xususida soʻz yuritmay iloji yoʻq. Dunyo millatlari orasida bu xalq vakillari magʻrur va hurmattalabligi bilan ajralib turadi. Bu jihat maqollarida ham koʻrinadi: « Un déni civil vaut mieux qu'une subvention grossière » – « Qoʻpol tahqirlanishdan koʻra hurmat bilan rad etilgan afzal ». Shuningdek, fransuzlarga xos yana bir jihat – bu ularning bolalarga nisbatan uy hayvonlariga boʻlgan mehri ustunroq turishini maqollarda “bola” obrazidan koʻra “it”, ayniqsa, “mushuk” obrazlari koʻproq qoʻllanilishida kuzatamiz. Masalan: « Le chien ne mange pas de chien » – « Qargʻa qargʻaning koʻzini choʻqimaydi ». « Les chiens qui aboient mordent rarement » – « Koʻp vovullagan it qopmaydi ». « Quand le chat est absent, les souris joueront » – « Mushuk yoʻq boʻlsa, sichqon bayram qiladi ». « Un chat avec des gants n'attrape pas de souris » – « Qoʻlqopli mushuk sichqon tuta olmaydi ».

Milliy madaniyatda din ham katta ahamiyat kasb etadi. Oʻzbek maqollariga qaraganda bu yaqqolroq koʻrinadi, yaʼni ularda jannat, doʻzax va shayton tasvirlari katta oʻrin tutadi: “L'enfer est pavé de bonnes intentions” – “Doʻzax ham ezgu niyatlar asosida yaratilgan”. “Le diable n'est pas si noir qu'il est peint” – “Shayton tasvirlaganlaridek qop-qora emas”. « Celui qui soupe avec le diable, devrait avoir une longue cuillère » – « Shayton bilan shoʻrva ichmoqch boʻlgan odamga uzun qoshiq darkor », yaʼni « Yomon bilan hamtovoq boʻlsang, oʻzingdan oʻpkala ».

Oʻzbek tili maqollaridagi mentalitet tushunchasiga toʻxtaladigan boʻlsak, xalqimiz qonidagi mehmondoʻstlik toʻgʻrisida eslamay ilojimiz yoʻq. Maqollarimizda mehmonga boʻlgan hurmat, bagʻrikenglik yaqqol koʻrinib turadi. Misol uchun: « Mehmon – atoyi xudo ». « Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kelar teshikdan ».

Shu bilan bir qatorda, oʻzbeklar bolajon xalq boʻlib, ona va bolaga boʻlgan eʼtibor ahamiyatga molik: « Ona bilan bola – gul bilan lola ». « Bolali uy – bozor, bolasiz uy – mozor ». « Bolamning bolasi – qandin oʻrik donasi ».

Yana shuni ham eʼtirof etish kerakki, “qaynona” va “kelin” obrazlari faqatgina oʻzbek maqollariga xosdir. Masalan: « Kelin boʻldim – qaynonamga yoqmadim, qaynona boʻldim – kelinimga yoqmadim ». « Qaynonaga tosh otsang, tosh olasan, qaynonaga osh bersang, osh olasan ».

Uyat, andisha, hayo kabi mavzular ham faqat oʻzbek maqollarida uchraydi desak, yanglishmaymiz. Isbot uchun: « Andishaning oti qoʻrqoq ». « Sharmsizlik – sharmandalik nishoni ».

Oʻzbek xalqi nonni juda eʼzozlaydi va buni maqollarda ham kuzatamiz: « Non moʻlligi – el toʻqligi ». « Nonga hurmat – elga hurmat ».

Maqollardagi milliy koloritni taʼminlaydigan yana bir obraz – bu oʻsha xalq taomlaridir. Isbot uchun:

Fransuz tilida: « Chaque cuisinier fait l'éloge de son propre bouillon » – « Har bir oshpaz oʻz shoʻrvasini maqtaydi ». « Trop de cuisiniers gâtent la sauce » – « Oshpaz koʻp boʻlsa, shoʻrva buziladi ».

Oʻzbek tilida: « Har kuni yema palovni, har kuni yoqqil olovni ». « Kuningdan bir kuning qolsa ham, osh ye ». [5]

Xulosa

Oʻzbek xalq maqollarida koʻpincha mehmondoʻstlik, kattalarga hurmat, oilaviy qadriyatlar, doʻstlikning ahamiyati kabi mavzularga urgʻu beriladi. Boshqa tomondan, fransuz maqollari koʻpincha individuallik, zukkolik, skeptitsizm, sanʼat va goʻzallikka boʻlgan muhabbat kabi qadriyatlarni aks ettiradi. Oʻzbek maqollarida koʻproq fatalistik dunyoqarashni aks ettiruvchi sabr-toqat, kamtarlik, taqdirga tan berish

kabi mavzular o‘rin olgan. Bundan farqli o‘laroq, fransuz maqollari ko‘pincha pragmatizm, mustaqillik va hayot muammolariga faol yondashishni ta’kidlaydi. O‘zbek maqollarida ko‘pincha tabiatdan ilhom olib, yer, hayvonlar, fasllarning o‘zgarishi bilan chuqur bog‘liqlik tasvirlangan. Boshqa tomondan, fransuz maqollari tabiatga ishora qilishi mumkin, lekin ko‘pincha metaforik yoki ramziy ma’noda. O‘zbek maqollarida hamjamiyat, hamjihatlik, o‘zaro yordam muhimligi ta’kidlangan. Fransuz maqollari ko‘proq individual munosabatlarga, aqlli almashinuvlarga va odamlarning o‘zaro munosabatlarining murakkabligiga e’tibor qaratishi mumkin. O‘zbek maqollarida ham, fransuz maqollarida ham hazil va kinoya qo‘llaniladi, biroq biroz boshqacha ma’noda. O‘zbek yumori ko‘proq nozik va ko‘pincha hikmat bilan chambarchas bog‘lanib ketadi, fransuz yumori esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri va satirik bo‘lishi mumkin. O‘zbek xalq maqollarida islom an’analari, ko‘chmanchilar merosi, bosqin va istilolar kabi tarixiy kechinmalarning ta’siri aks etishi mumkin. Fransuz maqollarida o‘rta asrlardagi ritsarlik izlari, ma’rifatparvarlik g‘oyalari va inqiloblar ta’siri namoyon bo‘lishi mumkin. O‘zbek va fransuz xalq maqollarida sevgi, do‘stlik, inson tabiati kabi umuminsoniy mavzular mushtarak bo‘lsa-da, ular o‘z jamiyatlarining o‘ziga xos tarixiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlarini ham aks ettiradi. Bu maqollarni o‘rganish o‘zbek va fransuz xalqlarining o‘ziga xosligini shakllantiruvchi milliy xususiyatlar va qadriyatlar haqidagi tushunchamizni yanada chuqurlashtirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maqollar bu xalqning madaniy merosidir. Ularda o‘sha xalqning barcha o‘y-fikrlari, dunyoqarashi, turmush tarzi, fe’l-atvori va e’tiqodi aks etadi. Har bir millat o‘ziga xos tavsiflarga ega ekan, bu ularning maqollariga ham ta’sir etmay qolmaydi. Hatto maqollardagi mavzular o‘xshash bo‘lsa-da, ulardagi obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvirlar maqollardagi milliy bo‘yoqdorlikni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fransuzcha-o‘zbekcha-ruscha proverbial frazeologik lug‘at. 2012.
2. Ziyonet.com
3. Z. Abdushukurova. Stylistique du français moderne. 2004.
4. O‘zbek xalq maqollari. – T.: “Sharq”. 2012. – 512 b.
5. Абдуллаева, Н. Н. (2021). МАQOL VA HIKMATLI SO‘ZLARNING PAREMIOLOGIK MAYDONI. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(2).
6. Nilufar, A. (2022). The Role of Poetic Style In Correcting Phonetic Pronunciation: From Poetic Play To Phonetic Play. Indonesian Journal of Innovation Studies, 18.
7. Nasulloyevna, A. N. (2022). Associative Characteristics of the Proverb. Texas Journal of Philology, Culture and History, 6, 6-9.
8. Абдуллаева, Н. Н. (2023, January). ПОСЛОВИЦА И ЕЕ БИНАРНАЯ СТРУКТУРА. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 1, pp. 585-591).
9. Nasulloyevna, A. N. (2022). MAQOLLARDAGI MUSHTARAKLIK XUSUSIYATLARI. OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 356.
10. Абдуллаева, Н. (2023). ОПИСАНИЕ ХАРАКТЕРИСТИК ПОСЛОВИЦЫ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКИХ И ФРАНЦУЗСКИХ ПОСЛОВИЦ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 32(32).